

KESISHGAN PRIKUSLI BEMORLARDA YUZ TUZILMASI O'ZGARISHLARINI BAHOLASH HAMDA ORTODONTIK DAVOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Bekturdiyeva Gulruh Hamdambek qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Stomatologiya fakulteti

Stomatologiya yo'nalishi Magistranti.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kesishgan prikusga ega bo'lgan bemorlarda yuz morfologik tuzilmasidagi o'zgarishlarni baholash, ularning klinik ahamiyatini aniqlash hamda samarali ortodontik davolash strategiyalarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida lateral va frontal rentgenografik tasvirlar, klinik kuzatuvlar va diagnostik modellar asosida yuz tuzilmasining morfofunktsional o'zgarishlari tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy ortodontik apparatlar yordamida davolash natijalari solishtirildi. Maqolada bemorlarning individual anatomik xususiyatlariga asoslangan yondashuv ortodontik davolashning muvaffaqiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekani isbotlab berildi.*

Kalit so'zlar: *kesishgan prikus, yuz tuzilmasi, ortodontik davolash, skelet-dentoalveolyar tahlil, morfofunktsional baholash, diagnostika, ortodontik apparatlar.*

Kesishgan prikus (anterior crossbite) – bu tishlarning noto'g'ri joylashuvi bo'lib, ko'pincha yuqori old tishlarning pastki old tishlarga nisbatan orqaroqda joylashuvi bilan tavsiflanadi. Bunday holat yuz morfologiyasi, estetikasi hamda tish-funktsional muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ortodontiyada bunday holatlarni erta aniqlash va individual davolash rejasini tuzish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Kesishgan prikus quyidagi omillar natijasida yuzaga keladi:

- Skelet omillar (masalan, pastki jag'ning ortiqcha rivojlanishi);





- Dentogen omillar (tishlarning noto'g'ri joylashuvi);
- Funksional omillar (notekis tishlararo aloqalar);
- Irsi omillar.

Shuni ham aytish joizki, dental malokluziya – bu tishlar yoki butun tish tizimi o'rtasidagi fiziologik bo'lmagan joylashuv bilan xarakterlanuvchi holatdir. Sut tishlaridagi malokluziya keyinchalik doimiy tishlar tizimida ham o'xshash buzilishlar yuzaga kelishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Old tishlar kesishmasligi (anterior crossbite) sagittal tekislikdagi morfologik nomutanosiblik bo'lib, bu holat pastki jag'ning oldinga siljishiga sabab bo'ladi.

Jag'lar o'sishining yo'nalishi, genetik omillar yoki funksional buzilishlardan qat'i nazar, bu turdagi malokluziyani erta bosqichda aniqlash va tuzatish estetik, psixologik va funksional jihatdan ijobiy natijalar beradi.

Yuz strukturasi va tashqi ko'rinish o'smirlik davrida shaxsiy identifikatsiya va o'z-o'zini baholash shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, malokluziya mavjud bo'lgan bemorlarda o'z vaqtida aralashuv amalga oshirilmasa, bu holat ularning ijtimoiy hayoti va ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, erta davolash usullari nafaqat kasallikning og'irlashishini oldini oladi, balki keyingi ortodontik davolash natijalarining barqaror bo'lishiga yordam beradi. Ayniqsa, sagittal tafovut 7 mm dan ortiq bo'lsa, relaps ehtimoli yuqori bo'ladi.

Yuqori jag'ning to'g'ri rivojlanishini ta'minlash uchun suyak bo'g'imlari (suturalar) yopilmasdan oldin erta aralashuv tavsiya etiladi. Aks holda, mandibulaning o'sishi maxillaning o'sishidan ustunlik qilib, deformatsiya chuqurlashadi va uni davolash yanada murakkablashadi.

Ortodontik davolashning asosiy maqsadi — yuqori va pastki jag'lar o'rtasidagi sagittal, transversal va vertikal nisbatlarni fiziologik holatga keltirishdan iborat. Buning uchun turli xil apparat va metodikalar qo'llaniladi. Funksional apparatlar mushak kuchidan foydalanib jag'lar o'rtasidagi munosabatni to'g'rilashga xizmat qiladi. Bunday apparatlar yuqori jag'ning uch o'lchamli o'sishini faollashtiradi va yuz skeleti simmetriyasini tiklashga xizmat qiladi.





Shuningdek, yuz tuzilmasidagi morfologik o'zgarishlarni baholash-yuz tuzilmasidagi o'zgarishlar lateral sefalometrik tahlil orqali o'rganiladi.

Ushbu jarayon quyidagi parametrlar asosida baholash amalga oshirildi:

- SNB, SNA burchaklari;
- mandibular va maksillyar uzunliklar;
- yuzning pastki uchining vertikal balandligi;
- lab pozitsiyasi va profil tahlili.

Kesishgan prikusli bemorlarda quyidagi ortodontik usullar sinovdan o'tkazildi:

- Fiksatsiyalangan breket sistemalari;
- Funktsional apparatlar (Frankel, Bionator);
- Yengil kuchlanishli elastik tortishishlar;
- Skeletal ancora (mini-implantlar) yordamida harakat nazorati.

Shuningdek, transverzal okklyuzion anomaliyalarning asosiy va yetakchi belgilaridan biri — bu tishlarning transverzal (ya'ni, ko'ndalang) tekislikdagi juft antagonistlar o'rtasida normal jipslashuvning buzilishi hisoblanadi. Ushbu nomutanosiblik chaynash paytida to'g'ri va muvozanatli kontaktning vujudga kelmasligiga olib keladi, bu esa o'z navbatida chaynash funksiyasining izdan chiqishiga sabab bo'ladi. Bunday holatda, funksional chaynov markazi odatdagi holatidan siljiydi, bu esa butun chaynash tizimi faoliyatining nomutanosib rivojlanishiga olib keladi.

Ushbu holat ayniqsa bolalik davrida sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki bu davrda chaynash harakatlari hali to'liq shakllanmagan bo'lib, ularning asosida yangi dinamik stereotiplar shakllanmoqda. Transverzal nomuvofiqlik sababli yuzaga kelgan noto'g'ri chaynash odatlari vaqt o'tishi bilan mustahkamlanadi va bu suyak to'qimalariga noto'g'ri bosim taqsimlanishiga olib keladi.

Natijada, jag' suyaklarining o'sish yo'nalishi va tezligida o'zgarishlar kuzatiladi. Tish yo'ylarining shakli, konfiguratsiyasi va simmetriyasi buziladi. Bu esa nafaqat estetik muammolarga, balki nutq, yutish, nafas olish kabi boshqa





funksional tizimlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, bunday anomaliyalarni erta aniqlash va o'z vaqtida ortodontik aralashuv choralarini ko'rish, tish va jag' tizimining sog'lom rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Davolash natijalarida bemorlarning yuz tuzilmasi muvozanatlashgani, tishlararo aloqalar tiklangani, lab-harakat va estetika yaxshilangani aniqlandi.¹

Xulosa qilib aytganda, kesishgan prikusli bemorlarda yuz tuzilmasidagi morfofunktsional o'zgarishlarni to'g'ri baholash va individual yondashuv asosida davolash strategiyasini tanlash ortodontik muvaffaqiyatga erishishning asosiy kalitidir. Zamonaviy texnologiyalar – 3D tasvirlash, mini-implantlar, yengil kuch bilan ishlovchi apparatlar davolash samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada keltirilgan yondashuvlar ortodontik amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilg'or tajriba sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Proffit, W. R., Fields, H. W., & Sarver, D. M. (2018). Contemporary Orthodontics (6th ed.). Elsevier.
2. Bishara, S. E. (2006). Orthodontics: Current Principles and Techniques. Saunders.
3. Graber, T. M., Vanarsdall, R. L., & Vig, K. W. (2012). Orthodontics: Current Principles and Techniques. Elsevier Mosby.
4. Kim, J. H., & Viana, M. A. (2011). Orthodontic treatment of anterior crossbite: A case report. American Journal of Orthodontics and Dentofacial Orthopedics.

¹ Kim, J. H., & Viana, M. A. (2011). Orthodontic treatment of anterior crossbite: A case report. American Journal of Orthodontics and Dentofacial Orthopedics.